

QUL UBAYDIYNING “KULLIYOTI” DAGI G‘AZALLARNI O‘RGANISH

Mamajonova Mohiraxon*Farg‘ona davlat universiteti filologiya
fakulteti 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada shoh va shoir Ubaydiy adabiy merosini tashkil qilgan g‘azal janriga oid namunalar tahlilga tortilgan. Shoir g‘azallarining mavzu ko‘lami, uslubi, ijodkorligi aniqlangan. maqolada shoirning o‘ziga xos badiiy mahorati ochiqqlangan. Maqolada Ubaydiy (Ubaydullohxon)ning adabiy merosini tashkil qilgan g‘azallar badiiy-poetik jihatdan tahlil qilinadi. Shoirning zullisonayn ijodi, uning g‘azallardagi mavzu rang-barangligi, tasavvufiy qarashlari, badiiy mahorati hamda Navoiy va Bobur an‘analarining davomchisi sifatidagi o‘rni izchil yoritilgan. Maqolada Ubaydiyning turkiy, forsiy va arabiy tillarda ijod qilgan noyob shoir sifatidagi adabiy-estetik qarashlari, shuningdek, uning g‘azallarida aks etgan falsafiy mushohadalar va dunyoqarash yuqori ilmiy saviyada sharhlanadi.

Kalit so‘zlar: zullisonayn, devon, g‘azal, asavvuf uboiy, mumtoz adabiyot, badiiy mahorat, Navoiy maktabi

Kirish. Barchamizga ma‘lumki, chor Rossiyasi davrida ko‘plab diniy-tasavvufiy adabiyotimiz vakillari bo‘lmish Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, So‘fi Olloyor, Xaziniy kabi ijodkorlarning meroslari o‘rganilmadi. Shu qatorda, saroy adabiyoti vakillari bo‘lmish Ubaydullaxon va Muhammad Rahimxon Firuz kabi shoh – shoirlar hayoti va ijodi ham ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganilmay keldi. Mustaqillikdan keyin ularning ijodi bilan keng ommani tanishtirish va ilmiy tadqiqotlar olib borish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi. Xususan, shoh va shoir Ubaydulloxon haqida ko‘p manbalardan ma‘lumotlar yetib kelgan. O‘z zamonasining tarixiy, ilmiy, tazkira asarlarida Ubaydulloxon siyosiy faoliyati, noyob iste‘dod sohibi ekanligi, adabiy merosi haqida qimmatli ma‘lumotlarni uchratamiz. Ubaydiy bilan bir davrda yashagan va ma‘lum vaqt Buxoro saroyida bo‘lgan Zayniddin Vosifiy “Badoe’ ul vaqoe” asarida Ubaydiy o‘zi va atrofidagi shoirlarni vaqtlarini bekor o‘tkazmaslikka undaganligini, uni doimo mashg‘ul qilish kerakligini, aks holda, sustkashlik ta‘bning bo‘shashishiga sabab bo‘lishini va zehnni o‘tmaslashtirishga olib kelishi mumkinligi haqidagi fikrlarini keltiradi.

Ubaydullohxon ijodida diniy-tasavvufiy g‘oyalar yetakchilik qiladi. Ubaydullaxon zullisonayn shoir bo‘lib, o‘zbek, arab va fors adabiyotidagi yirik ruboiynavislardan hisoblanadi. Uning o‘zbek va fors tildagi ruboiylari 850 ga yaqin. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida 3 tilda devon tuzgan birgina shoir ham Ubaydiy hisoblanadi. Xususan, o‘zbek adabiyotida ruboiyning Navoiy va Boburdan keyingi

taraqqiyoti Ubaydiy nomi bilan bog‘liq. Ubaydiy asarlarida o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan, o‘ziga xos xususiyatlaridan mahorat bilan foydalangan. Ubaydullohxon ijodkor sifatida Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Kotibiy asarlariga ixlosi baland bo‘lgan. Adabiyotni teran anglagan. Tafakkuri keng miqyosli bo‘lgan. Hatto zamondoshlari xon bilan uchrashishdan oldin imtihonga borayotgan talaba kabi ko‘p kitoblar o‘qib, she‘rlar yodlab, yangi asarlar yaratib borishga harakat qilishganligini eslashadi. Chunki uning tafakkur ko‘lami suhbatdoshidan chuqur bilimdonlikni, donishmandlikni taqozo qilar edi. Ubaydiy mumtoz adabiyotning g‘azal, ruboiy, hikmat, tuyuq, qit‘a, tarje‘band, noma kabi janrlarida qalam tebratgan. Ubaydiy g‘azallarida yetakchi mavzu ishq bo‘lib, unga oid tuyg‘ularni dunyo, tabiat, hayot go‘zalliklari orqali jonlantirib bera olgan. Ubaydiyning turkiy tildagi g‘azallari 310 tadan ziyod. G‘azallari, asosan, qisqa hajmli bo‘lib, 5-7 baytdan iborat. Ammo shunday qisqa hajmli g‘azallarda teran fikr va chuqur mushohadani ifodalay olgan. Shoir Navoiy hamda Bobur ijodiga alohida hurmat va ehtirom bilan qaragan.

Yor istamaki, olam aro yor topilmas,

Topilsa dag‘i mushfiq-u g‘amxo‘r topilmas.

Axtarsang agar bir yaratib ikki jahonni,

Mendek senga bir zor-u giriftor topilmas.

Ubaydiyning ushbu “Topilmas” radifli g‘azalini o‘qiganimizda Bobur ijodi ko‘z oldimizga keladi. Ikkinchi baytning oxirgi misrasidagi “Mendek senga bir zor-u giriftor topilmas” jumlasida Bobur g‘azalida “Mendek sanga bir zori vafodor topilmas” tarzida keltirilgan. Bundan shu narsa ko‘rinib turibdiki, Ubaydiy o‘zidan oldingi va zamondosh ijodkorlar ijodi bilan yaqindan tanish bo‘lgan hamda ularning lirik kechinmalaridan ta’sirlanib asarlar yaratgan. Ammo Ubaydiy Bobur ijodi bilan tanish bo‘lganligi haqida biron joyda ma’lumot keltirilmagan. Bobur ham “Boburnoma”da Ubaydiy haqida hech qanday fikr bermagan. Zero, ular bir davrda ijod qilishgan bo‘lsa-da, ikki raqib sulola vakillari bo‘lganligi sabab bir-birlarini e’tirof etish istaklari bo‘lmagandir, balki. Bu bizning subyektiv fikrimiz. Boburning ilk devoni Kobuldan Samarqandga jo‘natilganligini inobatga olsak, Ubaydiy ham devon bilan tanish bo‘lganligi haqida xulosa qilish mumkin. Aslida bu adabiy ta’sir masalasi Navoiyga borib taqaladi. Sababi, barcha turkiy ijodkorlar Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilgan va shoir ijodidan ilhomlanib asarlar yaratishgan.

Ey ko‘ngul, qilma tama ul dilistondin yaxshilik,

Notavon jonimga ul oshubi jondin yaxshilik.

El ichinda yaxshilik ko‘rmaymen ondin, – der edim.

Ey ko‘ngul, men ko‘rmadim kim ko‘rgay ondin yaxshilik⁴

Yuqorida keltirilgan “Yaxshilik” radifli g‘azal ham Bobur lirikasidagi xuddi shunday radifli g‘azal bilan o‘xshash. Hatto qofiyaga olingan so‘zlar ham ayni. Ubaydiy g‘azallari tili sodda, xalqona ruhda yozilgan bo‘lib, samimiy tuyg‘ular

tasviri turli badiiy ko‘rinishlarda o‘z ifodasini topgan. Shoir ijodida shunday g‘azallar ham uchraydiki, unda ishq emas, balki dunyo ishlaridan hasrat, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik masalalar butun boshli g‘azalda bayon etiladi. Bunda Ubaydiy Navoiydan ilhomlanib, uning an‘analarini davom ettirishga harakat qilgan. Quyidagi keltiriladigan baytlarda shoir falsafiy mushohadalarga urg‘u beradi:

Base, farog‘ati bor, do‘stlar, gadolig‘ning,
Balo-u mehnati ko‘p asr-u podsholig‘ning.
Ato-u lutfung agar elga bo‘lmas, yorab,
Yo‘q anda foidaki zuhd-u porsolig‘ning.

Ubaydiy kambag‘allikni, ya‘ni kamtarin hayotni osoyishtalik olib keladi deydi, podsholik, ya‘ni boylik, mansab har qachon balo va azoblarga to‘la ekanligini aytadi. Ushbu misralar negizida tasavvuf yotibdi. Oniy haqiqatga yaqin bo‘lish va erishish uchun dunyo hoy-u havaslaridan voz kechish, soddalik hamda g‘ariblikni tanlash kerakligi yoritib berilmoqda. Shoir bu yerda ijtimoiy haqiqatni ham eslatib o‘tadi: podsholik tashqaridan porloq bo‘lsa-da, ichkarisida mas‘uliyat, xavf va befarqlik bor. Ikkinchi baytda shoir podshohning lutf-u inoyati xalqqa bo‘lmasa, uning zuhd (dunyodan voz kechish) va porsoligi (taqvodorligi) ham foydasiz ekanligini ta‘kidlaydi. Ya‘ni, inson qancha taqvodor bo‘lmasin, agar bu taqvodorlik el (xalq) uchun foyda bermasa yoki Alloh uni inoyatdan bebahra qilsa, bu ibodatlar samara bermaydi. Ubaydiy ushbu g‘azalda keltirilgan g‘oyalarni hayotiga dasturulamal qilib oldi. Allohning rizosi xalqning rizosiga bog‘liq ekanligi hamda faqat o‘zini najot toptirish uchun ibodat qilish emas, balki boshqalarga ham rahmat va naf keltirish muhim ekanligini o‘z umri va ijodida ko‘rsatib berdi. Shoir ijodida falsafiy mushohadalarga yo‘g‘rilgan g‘azallar talay. Ular ham o‘z tadqiqotchisini kutmoqda. M. Abdullayev dissertatsiyasida Ubaydiy g‘azalchiligining ayrim tomonlariga to‘xtalib o‘tgan. Ammo turkiy, arabiy va forsiy tildagi 650 ga yaqin g‘azallarni g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini, poetikasini alohida tekshirish va izlanish zarur deb bilamiz.

Xulosa. Ushbu maqolada Ubaydiy adabiy merosini tashkil qilgan g‘azal, hikmat janrlarida yaratilgan asarlari bilan birma-bir tanishib chiqishga harakat qilindi va tahliliga ham to‘xtalib o‘tildi. G‘azal va hikmat janrida yozilgan asarlardagi parchalardan ham ko‘rinib turibdiki, Ubaydiy ijodida diniy-falsafiy va axloqiy-didaktik mavzu yetakchilik qilgan. G‘azallarida an‘anaviy mavzu bo‘lgan ishqiy ohanglar ham o‘rin olgan. Diniy-falsafiy va axloqiy-didaktik mazmundagi asarlarida bildirilgan fikrlar hozirgi vaqtda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ubaydiy. Kulliyot — qo‘lyozma manbalari.
2. Vosifiy Z. Badoe‘ ul-vaqoe‘ — tarixiy-adabiy manba.
3. Abdullayev M. Ubaydiy ijodi va g‘azalchiligi bo‘yicha tadqiqotlar.
4. Navoiy A. Asarlaridan olingan ta‘sirlar bo‘yicha ilmiy izohlar.
5. ‘Mumtoz adabiyot tarixi’, o‘quv qo‘llanma.